

**XX ASRNING 80-YILLARI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA
QASHDARYO VILOYATIDAGI O'ZGARISHLAR**

Mo'minova Iroda Xoliyor qizi

Imominova896@gmail.com

Mardonova Madina Hikmat qizi

madinamardonova340@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari.

Annotatsiya: ushbu maqolada XX asrning 80- yillari hamda mustaqillik davrida respublikamizning markazida joylashgan Qashqadaryo viloyatidagi o'zgarishlar ijtimoiy- iqtisodiy holat ,demografik vaziyat shuningdek ,madaniy rivojlanishlar manbalar tahlili orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: XX asrning 80-yillari, 25 o'rindan 45 o'ringa ko'paytirildi, Chiroqchi tumanida, 1982-yilda Qashqadaryo, Muborak tumanida Kosonda 4,75 foiz, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni , demografik o'sish .

XX asrning 80-yillari boshlaridan Qashqadaryo viloyatida aholi ijtimoiy hayotiga taaluqli bo'lган sohalar: ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlashda muhim o'zgarishlar sodir bo'la boshladiki, bu o'zgarishlar Qashqadaryo aholisi ijtimoiy ta'minotini yuksalishiga xizmat qildi. 1979-1980 yillarda Qashqadaryo viloyatida 47 ta yangi məktəb qurib ishga tushirildi, 13 ta professional texnika o'quv yurti, Muborak industrial texnikumi ochildi. 1980-yilda Chiroqchi tuman aholisiga 690 o'ringa mo'ljallangan 9 ta kasalxona, 5 ta ambulatoriya, markaziy tuman poliklinikasi, bolalar va xotin-qizlar konsultatsiyasi, 49 ta feldsherlik-akusherlik punktlari, 10 ta klinik, 2ta biokimiyoviy laboratoriya, 8 ta dorixona xizmat qildi. Ularda 138 ta vrach, 395 ta o'rta-maxsus ma'lumotli tibbiyot xodimlari faoliyat ko'rsatdilar. Chiroqchi tumanida 1981-yilda tug'ruqxona bo'limi 80 o'rindan 100 o'ringa, travmatologiya bo'limi 30 o'rindan 45 o'ringa, lor kasalxonasi 25 o'rindan

45 o'ringa ko'paytirildi. G'uzor tumanida 1981-1982 yillarda quruvchilar tomonidan 2204 o'rini maktab binosi,60 o'rini tug'ruqxona,512 kv.metr dala shiyponlari,1061 kv.metr hajmdagi turar joy binolari,sutni qayta ishslash zavodi,45 o'rini bolalar kasalxonasi, 640 o'rini qurilish texnikumi binosi qurib ishga tushirildi.60 o'rini pionerlar uyi,Oxunboboyev nomli sovxozungning 90 o'rini bolalar bog'chasi qayta ta'mirlandi . 1982-yil sentabrda Qashqadaryoda maktablar soni 720 taga yetib,ularda 335 ming o'quvchiga ta'lim berildi.46 ta o'rta-maxsus o'quv yurtlarida 23 ming yoshlar o'qidi.Qashqadaryoda 290 ta klub va madaniyat uyi,530 ta ommaviy kutubxona xalqqa xizmat qildi.Qashqadaryodagi 814 ta davolash muassasalarida 32 yo'naliш bo'yicha tibbiy yordam ko'rsatildi.Qashqadaryoning tibbiyot maskanlarida har 10 ming aholiga 106 ta koyka to'g'ri keldi.Aholini muhofaza qilishga 12 ming vrach va o'rta tibbiyot xodimi xizmat qildi.[1.12b] Madaniy-oqartuv muassasalari hukmron partiyaning tashviqot va targ'ibot olib boruvchi qudratli quroli sifatida keng xalq ommasi ongiga yangi mafkurani singdirishga xizmat qildi. Sovet davlati kommunistik g'oyalar asosida milliy madaniyatlarning bir-biri bilan yaqinlashish jarayoni ularning har birida ko'p millatli butun sovet madaniyatiga hos bo'lgan umumiy xususiyatlar yotar edi. Shu bois butun sovet hukumronligi yillarda sof milliy madaniyat emas, balki umumiy qonuniyatlarga asoslangan sovet madaniyati targ'iboti ustun edi.Ta'kidlash joizki, sovet hukumronligi yillarda madaniy-oqartuv muassasalarsoni yildan-yilga o'sib, uning tarmog'i kengayib bordi.Madaniy-oqartuv muassasalardan biri-klublar bo'lib, ular o'z faoliyatini barcha davlat va jamiyat xo'jaliklariga qarashli qo'rg'on va qishloqlarda, kolxoz va sovxozlarda shuningdek, shahar va tuman markazlarida amalga oshirdilar. Klublar oldiga partiya va sovet davlati siyosatini qo'llab-quvvatlash, aholi o'rtasida tegishli partiyaviy tashviqot ishlarini olib borishi lozim edi. 1982-yilda Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida jami 542 taklub bo'lib, shundan Madaniyat vazirligiga qarashlisi 203 ta, 126 ta kolxoz klubi, 113 ta esa kasaba uyushmasiga qarashli edi.[2.78b] 1984yilda Qashqadaryo viloyati Koson tumanida madaniyat bo'limiga qarashli 20 taklub muassasalari mehnatkashlarga madaniy xizmat ko'rsatgan .Koson tuman

madaniyat xodimlaridan 3 ta oily ma'lumotli mutaxassis bo'lib, shundan 2 nafar xodim klub ishi mutaxassisligi bo'yicha ma'lumotga ega edi.[3.78b]

1945-yilda Qashqadaryoda 165 ta va Surxondaryoda 167 taklub faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1985-yilda taalluqli ravishda 315 ta va 245 ta ga etdi yoki o'tgan 40 yil mobaynida klublarning soni taxminan 2 baravarga ko'paydi. Raqamlarga qarab baho berilganda, bu shubhasiz o'sish deb ta'kidlash mumkin. Lekin, bu borada masalaning boshqa tomoniga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Klublarda, avvalo sovet tuzumining ichki siyosati, g'oyaviy mafkuraviy tamoyillari targ'ib qilindi. Ommani amalda tasdiqlanmagan, bajarilishi real bo'lмаган rejalarini tuzib, uni amalga oshirishga hissa qo'shdishga safarbar etishga harakat qilindi. Sovet davrida zamonaviy klublar qurish, davr talabiga javob beradigan texnik jihozlar bilan ta'minlash ishiga deyarli e'tibor qaratilmadi. Klublar aslida KPSSning kommunistik jamiyat qurish g'oyalarini targ'ibot-tashviqot qilish markazlariga aylantirildi. Aksariyat holatlarda uyushtirilgan uchrashuvlar, turli darajadagi kechalarga tinglovchilar majburan jalg qilinar edi. Ko'p holatlarda esa klublar asosan maktab o'quvchilari hisobidan to'ldirilib, rosmana ko'rinish hosil qilinar edi. 70-80 yillarning birinchi yarmida, klublarda o'tkaziladigan aksariyat kechalarga bormaslik, undan ketib qolish holatlari avj oldi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistondagi mavjud kutubxonalar o'z faoliyatlarini sovet tuzumi sharoitida amalga oshirib, tarbiyaviy ishlarni yaxshilash va kengaytirish maqsadida turli mavzularda kitob ko'rgazmalari, ma'ruzalar, munozaralar, konferensiya va kechalarni uyushtirishning asosiy tashkilotchilaridan biriga aylandi. O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 17-noyabrida qabul qilgan "O'zbekiston SSRda kutubxonalar ishini yaxshilash tabirlari to'g'risida"gi qarorida Respublika kutubxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, milliy an'analar asosida rivojlantirish kabi masalalar emas, aksincha partianing g'oyaviy-siyosiy mafkurasini targ'ib etish vazifalari belgilab berildi.[4.90b]

Keyingi yillar maboynidagi, ya'ni 1989-2014 yillar oraliq'ida aholi soni ancha tez ko'payib boradi. Masalan, Muborak tumanida o'rtacha yillik ko'payish 5,70 foiz, Kosonda 4,75 foiz, Kitob va Nishon tumanlarida 4,10 foizni tashkil qilgan. Nisbatan

pastroq demografik o'sish Dehqonobodda 2,40 foiz, Qarshida 2,50 foiz va Kasbi tumanlarida 2,50 foiz kuzatiladi. Shu o'rinda e'tirof etish lozimki, mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha Muborak tumani respublikamizda eng oldingi o'rirlarni egallaydi². Tuman aholisining bunday tez o'sishi nafaqat tabiiy ko'payish, balki aholi migratsiyasi bilan ham bog'liq bo'lib, tabiiy resurslarni o'zlashtirish natijasida aholi bu yerga ko'plab ko'chib kelgan. Yuqori mintaqqa Shahrисабз, Yakkabog' va Kitob tumanlari ko'p jihatdan respublikamizning aholisi zich, xo'jaligi intensiv rivoj topgan voha va vodiylariga o'xshab ketadi. Shu bilan birga, aholi zichlik ko'rsatkichlari quyi mintaqaning ayrim tumanlari jumladan, Kasbi, Qarshida ham ancha yuqori. Aholining tabiiy harakat ko'rsatkichlari boshqa hududlar xususan, Surxondaryo viloyatidan tashqari sezilarli darajada farq qiladi. Chunonchi, bu yerda tug'ilish koeffisienti har 1000 kishi aholiga 25,1 kishini tashkil etadi. Eng yuqori daraja 2000 yilda Chiroqchi tumanida bo'lib, u bu yerda yaqin 34 kishiga barobar. Yakkabog' tumanida ham tug'ilish ancha yuqori – 26,7 foiz. Ayni vaqtida umumiy tug'ilish koeffisienti Mirishkor, Qarshi shahri va tumanida pastroq. 2013 yilda ham Chiroqchi tumani tug'ilish koeffisienti bo'yicha ajralib turadi (30,0 foiz). Qolgan qishloq tumanlari orasida katta farq kuzatilmaydi, viloyat markazi Qarshi shahrida tug'ilish 21,5 promille.[5.120b]

Jumladan, Qashqadaryo vohasidagi aholi tug'ilishi 1995 yil da 36,2 promille, 1996 yil 33,1 prom., 1997 yil 29,9 prom., 1998 yilda 27,1 prom., 1999 yil 27,5 prom., 2000 yilda 26,3 prom., 2001 yil 24,2 promille, 2002 yilda 23,9 prom., 2003 yilda 23,5 prom., 2004 yilda 22,7 prom.ni tashkil qilgan⁴. Yoki, 2018 yilda 82,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, shunga mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffisienti 25,8 prom.ni tashkil etgan. 2017 yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 76607 kishini tashkil qilib, 2016 yilning shu davriga (77684 kishi) nisbatan 1077 taga kamaygan. Tug'ilish koeffisienti mos ravishda 24,6 prom.ni tashkil qilib, 2016 yilning shu davriga (25,4 prom.) nisbatan 0,8 prom.ga kamaydi. Tug'ilish darajasining kamayishi viloyatning G'uzor tumanida (25,5 dan 25,0 prom.), Dehqonobod (28,4 dan 28,3 prom.), Qamashi (27,6 dan 27,2 prom.), Kitob (24,6 dan 24,3 prom.), Kasbi (25,6 dan 24,1 prom.), Chiroqchi (30,3

dan 30,2 prom.), Yakkabog‘ (27,8 dan 25,2 prom.) tumanlarida kuzatildi . 2018 yilda viloyat tumanlari orasida tug‘ilish koeffisienti o‘rganib chiqilganda, yuqori o‘sish Muborak tumanida (22,1 prom.dan 24,7 prom.) va Qarshi shahrida (17,9 prom.dan 20,7 prom.ga) Koson (24,6 prom.dan 25,6 prom.ga) va Kitob (24,1 prom.dan 24,9 prom.ga) tumanlarida bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkich Chiroqchi tumanida (32,9 prom.) kuzatilgan. Mehnat resurslari tumanlar kesimida tahlil qilinganda, yuqori ko‘rsatkichlarda Chiroqchi, Koson, Qamashi va Shaxrisabz tumanlari, eng ko‘p iqtisodiy faol aholi soni Chiroqchi tumanida (146,0 ming kishi) va Qarshi shahrida (130,6 ming kishi) ga kuzatildi. Iqtisodiy faol aholi sonining eng kam ko‘rsatkichlari Mirishkor (54,7 ming kishi) va Muborak (46,2 ming kishi) tumanlariga to‘g‘ri keldi.[6.43b]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qashqadaryo viloyati respublikamizdaki jadal rivojlanib borayotgan vohalardan biri hisoblanar ekan hamda aholi soni bo‘yicha yetakchi o’rinlarda turadi shuningdek,Qashqadaryo viloyatidagi mustaqillik yillaridagi o‘zgarishlar juda katta bo’libb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Doniyev Sardor Ixtiyor o’g’li XX asrning 80–yillarida Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy – siyosiy va madaniy jarayonlar. Toshkent-2018.
2. DoniyevS.I. (2020) O‘zbekistonda «paxta ishi», «o‘zbek ishi» kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi.
3. Советский Узбекистанза 40 лет. Ст.сб. -Т.: Узбекистан
4. DoniyevS.I. (2020) // O‘zbekistonda «paxta ishi», «o‘zbek ishi» kampaniyalari boshlanishi va uning Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi.
5. Aminova A.M. Zarafshon bo‘yida sanoat shaharlarining shakllanishi tarixidan. “O‘tmishga nazar”. 2021 y. № 4.
6. Karimov I. A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”. T.: O‘zbekiston, 1999